

## TABIATSHUNOSLIK DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Kurbanbaeva A.J**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tabiatshunoslik fanini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati keng yoritilgan. Muallif interfaol yondashuvlar o‘quvchilarning faolligini oshirishi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi, shuningdek, bilimlarni amaliyatda qo‘llash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilishi ko‘rsatilgan. Shuningdek, maqolada interfaol metodlarning boshqa an’anaviy usullardan ustun jihatlari, o‘quvchilar bilan bevosita muloqotni kuchaytirishi va darslarning mazmunan boy va samarali bo‘lishiga qo‘sghan hissasi tahlil qilinadi. Natijada, ushbu metodlardan foydalanish o‘quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishda muhim vosita ekani asoslab berilgan.

**Kalit so’z:** interaktiv metodlar, tabiatshunoslik, zamonaviy texnologiyalar, aqliy hujum, debat, rolga kirish, klaster.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish va e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi, talabalarga faqat tayyor bilimlar berib kelingan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zları qidirib topib, mustaqil ravishda o’rganib va tahlil qilib, ushbu qilingan ishlardan xulosalar keltirib chiqarishlariga undaydi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan birgalikda boshqaruvchilik funksiyasini bajaradi. Tabiatshunoslik – bu atrof-muhit, jonli va jonsiz tabiat, tabiiy hodisalar, hayvonot va o‘simliklar olami bilan tanishtiradigan fan.

Bu fan o‘quvchilarda kuzatish, tahlil qilish, sabablilikni aniqlash, muhofaza qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shuning uchun bu darslarda interaktiv metodlar alohida ahamiyat kasb etadi. Interaktiv metodlar esa, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida faol hamkorlikka asoslangan dars uslubidir. Bu usullar o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini kuchaytiradi va ularni dars jarayonida faol ishtiroy etishga undaydi.

Zamonaviy ta’lim jarayonida oquvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini chuqurlashtirishda interaktiv metodlar alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, tabiatshunoslik fanlarini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi hamda hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

Interaktiv metodlarning asosiy turlari. Quyidagi metodlar tabiyashunoslik fanlarini o‘qitishda keng qo‘llaniladi:

1. “Aqliy hujum” – o‘quvchilar erkin fikr yuritib, muammoni turli yo‘llar bilan yechishga harakat qilishadi.

2. “Klaster” – ma’lumotlarni tizimlashtirish va grafik tarzda tasvirlash orqali tushunchalarni yoritish.

3. “Rolga kirish” – tabiatdagi hodisalarni dramatik yoki rolli o‘yinlar orqali tushuntirish.

4. “Debat” – ekologik muammolar, tabiatni muhofaza qilish kabi mavzularda bahs-munozaralar.

5. “B-B-B” (Bilaman – Bilishni xohlayman – Bilganimni bayon qilaman) – dars oldi va darsdan so‘ng refleksiya metodi sifatida.

Shuningdek o‘qituvchi tabiatshunoslik fanlarida mavzuga oid o‘z bilimi pedagogik mahoratidan kelib chiqqan holda har xil metodlardan foydalananadilar. Masalan: “Akvarium” usuli - katta sinflarda, murakkab muammoli savollarni kichik guruh ichida muhokama qilishni kuzatish, tahlil qilish. Masalan: “Chiqindilarni qanday kamaytirish mumkin?” mavzusi bo‘yicha kichik guruh munozarasi.

“Blits-so‘rov” (Quick Quiz) - O‘quvchilarning bilim darajasini tezda aniqlash. Yangi mavzudan so‘ng yoki takrorlash jarayonida. Masalan: 5 ta tezkor savol - “Yerni necha foizi suv?”, “Fotosintez nimani anglatadi?” “Yerning formasi qanday?” va h.k.

“Fikrlar klasteri” (Cluster) -. Mavzuga oid asosiy tushunchalarni umumlashtirishda. Biror mavzu yuzasidan fikrlarni guruhashda qollaniladi. Masalan: “Suv — tiriklik manbai” mavzusi uchun: ichimlik suvi, daryo, dengiz, yomg‘ir, suv aylanishi va h.k.

“Rol o‘ynash” (Role play) - Hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali mavzuni chuqurroq tushunish. Ekologik muammolar, tabiatni muhofaza qilishga oid mavzularda. Masalan: “O‘rmonni kesmoqchi bo‘lgan odam va ekolog o‘rtasidagi suhbat.”

“Aqliy hujum” (Brainstorm) - O‘quvchilarning erkin fikr yuritishga undash. Yangi mavzuni boshlashda yoki muammoni hal qilishda ishlatiladi. Masalan: “Iqlim o‘zgarishining sabablarini sanab o‘ting.” va h.k

Interaktiv metodlarning afzalliklari

- O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.
- Mustaqil fikrlash, muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Tabiiy hodisalarni chuqur va ongli o‘zlashtirish imkonini beradi.
- Jamoada ishlash, o‘z fikrini himoya qilish, tahlil qilishga o‘rgatadi.

Tabiatshunoslik fanida interaktiv metodlar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi. Tabiatshunoslikda interaktiv metodlar o‘quvchilarning kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash, mustaqil ishslash va

guruhda hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu metodlarni maqsadga muvofiq tanlab, darslarda muntazam qo'llash o'quv samaradorligini oshiradi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Shoymardonov T.T. va boshq. Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash. O'quv-uslubiy majmua. –T.: 2016. 165 b.
2. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. – T.: Fan, 2004. - 167 b.
3. Haydarova O.Q. Oliy pedagogik ta'limga texnologik yondashuv asoslari. – T.: Yangi asr avlodi. 2006.167 b.